

**Zafarova Muxtabar Zoxidjon qizi**

Toshkent Farmatsevtika instituti 3-bosqich talabasi

[muxtabarzafarova@gmail.com](mailto:muxtabarzafarova@gmail.com)**Xalilova Shannoza Ravshanovna**

PhD, dotsent Toshkent Farmatsevtika instituti

**GEPATOPROTEKTOR XOSSAGA EGA BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR**

**Annotatsiya:** Gepatoprotektor xossaga ega dorivor o'simliklarning farmakologik ahamiyati, ularning tarkibiy faol moddalarining jigarga ta'siri hamda qo'llanilish sohalari o'r ganilgan. Bo'znoch, o'tloq sebagasi, dastarbosh va makkajo'xori kabi o'simliklarning kimyoviy tarkibi, antioksidant, yallig'lanishga qarshi va regenerativ xususiyatlari batafsil tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Jigar, flavonoidlar, fitoterapiya, antioksidant, vitamin, bo'znoch, o'tloq sebagasi, dastarbosh, makkajo'xori.

Inson organizmi nihoyatda murakkab tuzilgan bo'lib, unda har bir a'zoning o'z faoliyati bor. Jigarning inson organizmidagi faoliyati juda ham muhimdir. U iste'mol qilingan ovqat va suyuqliklarni hazm qilishda ro'l o'ynaydi. Tibbiyotda gepatoprotektor ta'sirga ega bo'lgan preparatlар asosan jigar kasalliklarida ishlatiladi. Abu Ali Ibn Sino davrida mavjud "Tib qonunlari" kitobida anchagina o'simliklarning ta'rifi, ularning oshqozon va jigar kasalliklarini davolash xususiyatlari va qo'llanish usullari bayon qilingan [1]. Markaziy Osiyoda uchraydigan 700 ga yaqin o'simlik ilmiy va xalq tabobatida ishlatiladi, shulardan 27 ta dorivor o'simliklar turi jigar va o't yo'llari kasalliklarini davolashda ishlatilishi ko'rsatilgan. Ayniqsa ulardan anor, qora zira, bexi, bo'znoch, zig'ir, zubturum, lavlagi, dastarbosh, no'xot, qoqio't, na'matak, kashnich, petrushka, piyoz, ro'yan, yalpiz, shuvoq va boshqa bir qancha o'simliklar jigar va o't yo'llari kasalliklarini davolashda ko'proq ishlatilishi qayd etilgan [2,4]. O'zbekistonda jigar xastaligi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar ko'pligi kuzatilgan. Jigar kasalligining turlari ko'p bo'lib, jigar va o't yollarining yallig'lanishi (gepatit, xoletsistit, xolangit) ko'p uchraydigan kasallik hisoblanadi. Jigar odam organizmida moddalar almashinuvida asosiy o'r'in egallaydi. Ozuqa moddalardan tashqari qonga so'riladigan turli zaxarli kimyoviy moddalar, jumladan dori vositalarining ham kuchini sindiradi (metabolizm) va jigar hujayralaridan (gepatotsidlar) safro ishlab chiqaradi.

Hozirgi vaqtida tarkibida mentol, terpen va efir moylarini saqlagan flavonlar, vitamin fitosterinlarini saqlovchi 100 dan ortiq o'simlik preparatlari ma'lum. Ular xoleretik, spazmolitik va bakteriyalarga qarshi ta'sirga ega. Bularni hepatobiliar (jigar - o't yollar) tizimi kasalligida ishlatish maqsadga muvofiq. Flavonoidlar saqlovchi o'simliklarni o't haydovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan muhim va keng miqyosda ishlatiladigan o'simliklar guruhiга kiritish mumkin. Ko'pgina o'simliklar bu xossalarga ega, ayniqsa, bularga bo'znoch, dastarbosh, shuvoq, chetan, makkajo'xori va boshqalarni kiritish mumkin [2,3]. O't haydovchi ta'sir safro ko'payishi va ajralishi bilan bog'liq. Bu vaqtida o't tarkibida nafaqat zikh komponentlar, xatto suyuq qismi ham ajralishi kuchayadi. Natijada uning o't kapillyarlari va yo'llariga, drenaj yollariga hamda o't pufagiga kirishi yaxshilanadi. Flavonoidlarning har tomonlama hepatotrop ta'siri, ularni saqlagan o'simliklar (odatda murakkab yig'malar holida) hepatit, xolangit, xoletsistit, ovqat hazm qilishning turli patologik holatlari va boshqa kasalliklarda ishlatiladi. igarni

**Jigar faoliyatini yaxshilash uchun tavsiyalar:**

Zararli odatlardan voz kechish, spirtli ichimliklar va zararli ovqatlar jigarga zarar yetkazadi. Ularni cheklash yoki to‘liq voz kechish zarur. Ko‘proq suv ichish, suv organizmn jumladan, jigarni tozalashga yordam beradi. Oqsillarga boy oziq-ovqatlar mahsulotlarini iste’mol qilish. Baliq, tuxum va loviya kabi mahsulotlar jigarning tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Jismoniy faollikni oshirish, jismoniy mashqlar yog‘larning jigarda to‘planishiga yo‘l qo‘ymaydi va jigar funksiyasini yaxshilaydi. Tabiiy o’tlar va dorivor choylar iste’mol qilish zarur. Masalan, bo’znoch, o’tloq sebargasi va dastarbosh asosida tayyorlangan choylar jigarda yallig‘lanishni kamaytiradi va toksinlarni chiqarishga yordam beradi.

Gepatoprotektor xossaga ega dorivor o‘simgliklar jigarni toksik moddalar ta’siridan himoya qilish va uning faoliyatini tiklash uchun samarali vosita hisoblanadi. Ularning tarkibidagi biologik faol moddalar jigar hujayralarini mustahkamlaydi, yallig‘lanishni kamaytiradi va regeneratsiya jarayonini tezlashtiradi

**Foydalanimgan adabiyotlar:**

1. Singh, R. P., Sharad, S., & Kapur, S. (2004). "Free radicals and oxidative stress in neurodegenerative diseases: relevance of dietary antioxidants." *Journal of Clinical Biochemistry and Nutrition*, 34(2), 87-94.
2. Kaur, S., & Das, M. (2011). "Functional foods: An overview." *Food Science and Biotechnology*, 20(4), 861-875.
3. Luper, S. (1998). "A review of plants used in the treatment of liver disease: Part 1." *Alternative Medicine Review*, 3(6), 410-421.
4. Смирнов С.О., Фазуллина О.Ф. Плоды расторопши пятнистой как перспективное сырье растительного происхождения в технологии производства биологически активных добавок к пище // Пищевая промышленность. 2018. №9. С. 8-12.
5. Sandy Everlasting (Helichrysum arenarium (L.) Moench): Botanical, Chemical and Biological Properties / D. Pljevljakusi [et al.] // *Frontiers in Plant Science*. - 2018. - Vol. 9. - P. 1123-1135.
6. Халилова Ш.Р., Пулатова Д.К., Урманова Ф.Ф. Изучение элементного состава надземной части клевера лугового // *Фармацевтический журнал*. – Ташкент, 2012.- №4.-С.26-28.
7. Сливкин А.И., Тринеева О.В. Исследование элементного состава лекарственного растительного сырья методом масс-спектрометрии (на примере листьев крапивы двудомной и плодов облепихи крушиновидной) // *Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Химия. Биология. Фармация*. - 2016. - № 1. - С. 152-155.